



## O'QITUVCHILIK KASBINING BUGUNGI KUNDAGI JAMIYATDAGI O'RNI

**Gulyamova Xosiyat Xabibullayevna**

*Toshkent shahar Shayxontohur tumanidagi  
186-umumiy o'rta ta'lim maktabining Rus tili fani  
o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada o'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablar, demokratik jamiyatda pedagoglik kasbi hamda o'qituvchilik kasbining bugungi kundagi jamiyatdagi ahamiyati va roli yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** O'qituvchilik kasbi, pedagog, jamiyat, pedagogika, Alisher Navoiy.

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo'lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgandir. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

Ustoz! Shu birgina so'z zamirida olam-olam ma'no va hurmat mujassam. O'qituvchi -sofdil, kamtarin, ma'naviy boy, ahloqan pok insondir. Ularning poyiga guldastalar sochsak, doimo hurmatlarini ado etib, ardoqlasak arziydi. Chunki ustozlar butun kuchlarini, aql-idroklarini, bilim va zehnlarni, qalb qo'riyu sehlarni shogirdlariga baxshida etgan zahmatkashlardir. Ular bizlarga oq-qorani, yaxshiyu-yomonni tanitib, qo'llarimizga ilk borqalam tutqazib, "Ota", "Ona", "Vatan", "Ezgulik", "Baxt", "Saodat" kabi so'zlarni yozishga o'rgatgan buyuk zotlardir. Donolarning aytishicha, elni ma'rifat asraydi. U elni taraqqiy ettirib, ezgu niyati, orzu-umidiga yetkazadi.

Demak, ustozlarning zimmasida kelajagi buyuk davlat uchun komil, har tomonlama barkamol, ma'naviy va axloqiy pok vatanparvar, mehnatsevar insonlarni yetkazib berishdek, yuksak vazifa turibdi. O'qituvchi zimmasiga hayot talablariga to'la javob beradigan va o'z zamoniga munosib kishilarni tarbiyalashdek ma'suliyatli vazifa yuklatilgan. Quyosh oz nuri bilan butun tabiat, borligini jonlantirgani kabi, o'qituvchi, murabbiy ham bor mahorati, ilmi bilan o'quvchi yoshlar qalbini ilmziyosi bilan to'ldirishga ahd qilgan buyuk kasb egasidir. Hayotning go'zalligi, farovonligi, odoblighi, qolaversa, istiqlolimizning ravnaqi muallim mehnati bilandir. O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi qadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'ymoqda. Istiqlol egalari bo'lmish yosh avlodni bilimli, savodxon, ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom qilib voyaga yetkazishda o'qituvchi murabbiylarning qissasi benihoya kattadir.



Ular berayotgan puxta bilim va ibratli tarbiya katta hayot ostonasida turgan og'il-qizlarning Vatanparvar hamda hayotda chin inson bolishlari, Vatanimizga, xalqimizga fidoiy va halol xizmat qiladigan insonlar bolib yetishishiga zamin bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchilik - ma'suliyatli va mashaqqatli kasb, og'ir va davomli mehnatni, sabr-toqatni talab qiladigan savobli ish. Insoniyat kamoloti uchun bugun bilimi, iqtidori va hayotini baxsh etgan ustozlarning xizmatlarini hamma zamonlarda ham kishilar hurmatlab, o'zlarini esa e'zozlab kelishgan. O'z davrining mashhur pedagogi Abdulla Avloniy "Har bir millatning saodati, davlatlarning tinchi va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdir", deb yozgan edi. "Ustoz - otangdek ulug", degan hikmatda ham olam-olam ma'no bor. Otaday ulug' deb nisbat beriluvchi inson birdan bir inson bor bo'lsa bu-ustozdir! Haqiqatdan, ota - ona seni voyaga yetkazadi, ustoz esa uni bosishing, kamolatga erishishing, ilm-ma'rifat cho'qqilarini zabt etishiga ko'maklashadi. O'z umrini, qalb qo'rini, aql-idrokini, tajribasi va bilimni sening yolingga sarf etadi. Yutugingni ko'rib quvonadi, muvaffaqiyatsizligingdan g'am andux chekadi. O'qituvchi bog'bonga o'xshaydi. U tarbiyalab o'stirganni hollarning hosili qanchadan qancha avlodlarni bahramand qiladi. O'qituvchi va murabbiylarning ma'suliyatli, ammo sharaflari kasblarini bir masalaga qiyos etish mumkin.

Y.A. Komenskiy o'qituvchidan bolalarga e'tiborli bo'lishni, do'stona va mehribon bo'lishni, o'zining qattiq muomalasi bilan bolalarni o'zidan uzoqlashtirmaslikni, balki ularni otalik fe'l-atvori, odob-axloqi va so'zlari bilan jalb qilishni talab qiladi. Bolalarni oson va quvonch bilan o'rgatish kerak, "ilm ichimligi kaltaksiz, baqiriqsiz, zo'ravonliksiz, jirkanchsiz, bir so'z bilan aytganda, do'stona va yoqimli yutib yuboriladi". O'qituvchiga qo'yiladigan muhim talab-pedagogik qobiliyatlarning mavjudligi o'quvchilar bilan ishlashga moyillik, bolalarga muhabbat va ular bilan muloqot qilishdan zavqlanishda ifodalangan shaxs sifati. Ko'pincha pedagogik qobiliyatlar aniq harakatlarni bajarish qobiliyatiga torayib ketadi chiroyli gapirish, qo'shiqaytish, chizish, bolalarni tartibga solish va hokazo. Ulug' shoirimiz Alisher Navoiy ham o'qituvchi mehnatini holisona baholab:

"Agar shogird Podsholikka erishsa ham, unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi", "Haq yo'lida kim senga bir harf o'rgatmish ranj ila, Aylamak emas osonning haqqin yuz ganj ila", -kabi satrlar bitgan.

Zamonaviy maktab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi - sinfdagi o'quv jarayoni tashkilotchisidir. O'qituvchi o'quvchilar uchun dars payti, qo'shimcha darslarda va shu bilan birga darsdan tashqari hollarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbaidan biridir. Ko'pchilik o'qituvchilar sinf



rahbari vazifasini bajarib, tarbiya jarayoni tashkilotchilari bo'lib hisoblanadilar. Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy psixolog bo'lmashligi mumkin emas. Shuning uchun ham o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga solish, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir. Ma'lumki pedagogik faoliyat – kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. O'qituvchi jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar bilan bir qatorda o'z faoliyatida, tevarak-atrofidagi kishilar, maktab ma'muriyati, hamkasblari, o'quvchilar va ularning ota-onalari undan nimalarni kutishini ham edan chiqarmashligi lozim. O'qituvchining o'z ishidan nimanidir kutayotganligining o'ziyoq muhim ahamiyatga ega, mana shu tariqa kutishlar, garchand jamiyat tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan talablarga mos kelsada, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Lekin bu talablar hamma vaqt ham bir-biriga mos kelmasligi mumkin. Pedagogik maxoratni egallashda pedagogika va psixologiyaga doir bilimlar katta rol o'ynaydi. Ilmiy psixologik-pedagogik bilimlar sistemasining mavjudligi o'qituvchilarga faqat o'z sinfini hamda ayrim o'qituvchilarni o'rganishi va ularni to'g'ri harakterini tuzatishgina emas balki bolalar kollektivi va uning har a'zosining rivojlanishi istiqbollarni ham belgilash imkonini beradi. O'qituvchi tarbiyachining amaliy faoliyatini bu ko'plab pedagogik vazifalarini betuxtov xal qilishdir. O'zining kasbiga doir bilimlar zapasidan ijodiy foydalangan o'qituvchigina ularni muvaffaqiyatli xal etish mumkin. Ammo pedagogika va psixologiyaga doir bilimlar konkret tarbiyaviy jarayonlarda yuzaga keladigan barcha vazifalarga tayyor javoblar bera olmaydi. O'qituvchining faoliyati-ijodiy faoliyat va aynan bilimlarni ijodiy qo'llash mohir pedagogning o'ziga xos xususiyatini ko'rsatib turadi. Har bir bo'lajak o'qituvchi va maktabda ishlayotgan o'qituvchi o'zlarida pedagogik qobiliyatini o'stirish uchun zo'r ishtiyoqni namoyon qilishlari kerak. Pedagogik qobiliyat pedagogik faoliyatning shartigina emas, balki natijasi hamdir.

Pedagogik mahorati o'qituvchida pedagoglik odobi nazokatning mavjudligi bilan xarakterlanadi. O'qituvchining umumiy ma'naviy tarbiyalanganligi pedagogik odobning asosidir. Pedagoglik odobi — bu o'quvchilarga nisbatan pedagogik etikani o'ziga xos amalga oshirilishidir. Pedagoglik odobi bu o'qituvchining yuksak insoniylik, insonga mehribonlik o'zini tuta bilish, sabr bardosh va har qanday vaziyatlardan ham xayrixohlik munosabatlarini o'rnata bilish kabilarni qamrab oluvchi ma'naviy xulq-atvoridir. Pedagoglik odobiga ega bo'lgan o'qituvchi va o'quvchilar ota-onalar, hamkasblari bilan bo'ladigan o'z munosabatlarini ustalik bilan boshqaradi. O'qituvchi o'quvchining tarkib topayotgan shaxsi bilan ish ko'radi. Uning bolalar bilan bo'ladigan barcha munosabati: insonga mumkin qadar



ko'p talabchanlik va unga mumkin qadar ko'p hurmat printsipli asosida ko'rilishi kerak.

O'qituvchining pedagogik mahorati uning intellekti va madaniyatiga hamda kasbiga doir vazifalarni hal qilish qanchalik qo'lidan kelishini doimo tekshirib borishi, bola ongi hamda qalbiga eng yaxshi yo'llarini axtarish va izlab topishga ham bog'liq. O'qituvchi o'quvchiga o'zining xatti-harakati bilan ham turmush tarzi qiyofasi bilan ham ta'sir qiladi. Uning intellekti va madaniyati, haqgo'yligi va insoniyligi uning ma'naviy sifatlari o'quvchi tomonidan etalon sifatlari qabul qilinadi. Shuning uchun ham o'qituvchi u qaysi predmetni olib borishdan qat'iy nazar yoshlar uchun murabbiylik murabbiysi, taqlid uchun yuksak namuna, o'rnak bo'lishi kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Keldiyorova, G. S., Qurbonova, N. N., Fatxullaxodjaev, M. Z., & Rixsiyeva, L. A. (2022). Didactic Functions and types of Role-Playing Games that Contribute to the Development of Communicative Foreign Language Speech Skills. *Specialusis Ugdyimas*, 1(43), 10577-10582.
2. Hasanboev J., Hasanboeva O., Homidov H. *Pedagogika tarixi*. – T.: O'qituvchi, 1997.
3. Келдиёрова, Г. С. (2021). Язык и стиль Эркина Вахидова. *Молодой ученый*, (41), 40-42.
4. Norboyev, F. (2023). PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR TADBIQIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(9), 55-60.
5. Kaldibekova, A. S., & Norboyev, F. C. (2021). PEDAGOGIK INNOVATION FAOLIYATDA PSIXOLOGIK TO'SIQLAR MUAMMOSI. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 611-615.
6. Норбоев, Ф. (2023). KREATIVLIK VA INNOVATSIYA BORASIDA ZAMONAVIY NAZARIYALAR. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(8).
7. Мухитдинова, М., & Эшмаматова, М. (2021). *Мировая Культура, Неповторимая Литература В Памяти Великого Поэта Мухаммада Аминхужа Мукиимий*. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 2(4), 71-73.